QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 10-son)
PEDAGOGIKA
PEDAGOGY
https://doi.org/10.70728/c.series.ped.v08.i10.034

TA’LIM MUHITIDA FAOL FUQAROLIKNI SHAKLLANTIRISH MODELINI TAYYORLASHNING PEDAGOGIK IMPERIATIVLARI

Xabibulla Muratov Abduqodirovich
Qarshi davlat universiteti o’qituvchisi
habibmurodov083@gmail.com

Annotatsiya. Yoshlarda faol fuqarolikni egallash masalasi fenomenologik (qanday idrok etish tarzida) mazmunga ega bo’lib, fuqaro, faol, faol fuqaro, fuqarolik manfaati, fuqarolik mas’uliyati, fidoyilik ko’rsatish kabi fundamental kategoriyalarda tarkib topgan. Ayrim manbalarda ularni huquqiy madaniyatning kategoriyalari tarzida bayon etishgan, ba’zi manbalarda pedagogik xavfsizlikning predmeti tarzida ko’rsatib o’tgan. Pedagogik tadqiqotlar doirasida faol fuqarolik fenomenining turli jihatlarini o’rganishga mo’ljallangan metodikalarni hozirga qadar yaratilmaganligi, nazariy-metodologik asosni takomillashtirishni taqozo etadi. Tadqiqot o‘tkazish doirasida “Faol fuqarolikni ifodalashni o’rganish” so’rovnomasi va “Faol fuqarolik sifatlarini egallash motivatsiyasini o’rganish” metodikasini ishlab chiqishni belgilab olingan. Chunki, pedagogik tadqiqotlarda o’lchov birligiga ega bo’lgan tadqiqiy metodikalardan foydalanish, o’rganilayotgan obyektning pedagogik diagnostikasi va progonozini amalga oshirish uchun ham kerakdir. Bunda, tadqiqot mantig’ini belgilab, kerakli sifat (bilim, ko’nikma va malaka)larni shakllantirish yoki pedagogik korreksiyasini ta’minlash tadqiqotchining diqqat markazida turadi.

Kalit so‘zlar: Faol fuqarolik, imperative, dogmatic ta’lim, individuallik, metodika, fenomen, empiric, kompetensiyalar, modernizatsiya**.**

Аннотация. Разработаны научные выводы и практические предложения по совершенствованию внедрения существующих научно-теоретических подходов в образовательную практику. Формирование активной гражданской позиции у молодежи имеет феноменологическое содержание и тесно связано с такими фундаментальными категориями, как «гражданин», «активный гражданин», «гражданский интерес», «гражданская ответственность» и «самоотверженность». В ряде научных источников данные понятия рассматриваются как категории правовой культуры, тогда как в других исследованиях они интерпретируются как важные составляющие педагогической безопасности и воспитательного процесса. Недостаточная разработанность в рамках педагогических исследований методик, направленных на диагностику различных аспектов феномена активной гражданственности, обусловливает необходимость дальнейшего совершенствования его теоретико-методологических основ. В связи с этим

в рамках исследования предусмотрена разработка опросника «Изучение проявлений активной гражданственности», а также методики «Изучение мотивации к приобретению качеств активной гражданственности». Использование в педагогических исследованиях диагностических методик, обладающих определенными единицами измерения и критериями, позволяет определить состояние изучаемого объекта, оценить динамику его развития и осуществлять педагогическое прогнозирование. При этом основными направлениями исследования являются четкое определение его логики, формирование необходимых знаний, умений, навыков и компетенций, а также педагогическая коррекция существующего состояния. В статье особое внимание уделяется педагогическим императивам модели формирования активной гражданственности в образовательной среде, ее структурным компонентам, критериям и возможностям совершенствования диагностического инструментария.

Ключевые слова: активная гражданственность, педагогический императив, образовательная среда, гражданская позиция, гражданская ответственность, правовая культура, индивидуальность, педагогическая диагностика, методика, феномен, компетенция, модернизация.

Abstract. The study also develops scientific conclusions and practical recommendations for improving the implementation of existing theoretical and methodological approaches in educational practice. The formation of an active civic position among young people has a phenomenological dimension and is closely associated with such fundamental categories as “citizen,” “active citizen,” “civic interest,” “civic responsibility,” and “selflessness.” In some scholarly sources, these concepts are interpreted as categories of legal culture, while other studies consider them important components of pedagogical security and the educational process. The insufficient development of methodological tools for diagnosing various aspects of the phenomenon of active citizenship within pedagogical research necessitates further improvement of its theoretical and methodological foundations. In this regard, the study proposes the development of a questionnaire entitled **“Study of the Manifestations of Active Citizenship”** and a methodology entitled **“Study of Motivation for Acquiring Active Citizenship Qualities.”** The use of diagnostic methodologies with clearly defined measurement units and criteria in pedagogical research makes it possible to determine the current state of the object under study, assess its developmental dynamics, and conduct pedagogical forecasting. In this context, particular attention is given to defining the logic of the research, developing the necessary knowledge, skills, abilities, and competencies, and providing pedagogical correction of existing conditions. The article focuses specifically on the pedagogical imperatives of the model for forming active citizenship in the educational environment, its structural components, assessment criteria, and opportunities for improving diagnostic tools.

Keywords: active citizenship, pedagogical imperative, educational environment, civic position, civic responsibility, legal culture, individuality, pedagogical diagnostics, methodology, phenomenon, competence, modernization.

KIRISH. Faol fuqarolikni shakllantirish pedagogik muammo sanalib, asosan, sotsiodidaktik yondashuvni taqozo etadigan hamda xavfsizlik pedagogikasiga taalluqli mavzular sirasiga kiradi[5]. Bunda, Dj.Dyuining avtoritar, predmetsentristik maktablar o’rnini pedotsentritstik (detotsentristik) maktablar egallashi lozimligi asoslovchi pedagogik qarashini keltirib o’tish mumkin[6]. Dj.Dyuining pedagogik qarashlari shaxsni shakllantirish barobarida, jamiyat taraqqiyoti uchun kerak bo’lgan sifatlarni ijtimoiy buyurtma tarzida qabul qilib, ta’lim-tarbiya jarayonida uni shakllantirish maktabning vazifasi ekanligi dunyo metodistlarining e’tiborini jalb etdi. Buyuk Britaniyani uni qarashlarini XX-asrning avvallarida targ’ib etish boshlanib, ta’lim tizimini progressiv modernizatsiyasini amalga oshirishda metodologik asoslardan biri sifatida qabul qilindi[7]. AQShda Dj.Dyuining “progressiv maktab” konsepsiyasi XX-asrning 80-yillarida tatbiq eta boshlandki, fuqarolik ta’lim-tarbiyasi bobida qator yutuqlarni qo’lga kiritishni ta’minladi[8]. Bu sohada, pedagogik imperiativ[9] sifatida dogmatik ta’lim va tarbiya tizimidan voz kechib, ta’lim oluvchilarning erkinligi asosida o’zlashtirishni ta’minlash ifodalandi.

ADABIYOTLAR SHARHI. Faol fuqarolik fenomeni bilish, axloqiy, ijtimoiy va qadriyatli jihatlari, pedagogik jarayon sifatida, individuallik pedagogikasi hamda gumanitar pedagogika nuqtai nazari asosida o’rganilishi mumkin. Masalan, V.A.Gribanova fuqarolik faolligini qidiruvli-bilish, subyektiv-baholovchi va ijtimoiy-shaxsiy darajalarini o’rganib, ta’lim muhitida pedagogik shart-sharoitlarni yaratish bilan birga, pedagoglarni tayyorlash masalasiga e’tibor qaratgan[10].

Faol fuqarolik pedagogik nuqtai nazardan ko’p qamrovli ijtimoiy-madaniy majmua sanalib, manbalarning qiyosiy tahlilining natijasi[11] va fuqarolik faolligini oshirishning empirik o’rganish metodikasini tayyorlash nazari bo’yicha muhimlari sifatida quyidagi pedagogik imperiativlarni ko’rsatib o’tish maqsadga muvofiqdir:

Faol fuqarolikning ta’limiy jihati, fuqarolik sifatlarini shakllantirishda ta’lim mazmunining gumanistikligiga e’tibor qaratib, jamiyat hayotini ta’minlash uchun kerak

---

[5] Hirzalla F. & Zoonen, L. Beyond The Online / Offline Divide: How Youth’s Online and Offline Civic Activities Converge. Social Science Computer Review, vol. 29, no. 4, 2011. –P.481-498., Гафнер В.В. Педагогика безопасности как новое научное направление современной педагогики // – Москва: Научная цифровая библиотека PORTALUS.RU. – https://portalus.ru/modules/ pedagogics/rus_readme.php?subaction=showfull &id=1346864612&archive=&start_from=&ucat=&, Ryszard B. Pedagogika bezpieczeństwa w kontekście współczesnych zagrożeń w życiu społecznym // UniwersytetMariiCurie-Skłodowskiej w Lublinie. Wydział Pedagogiki i Psychologii – VOL. XXX, 4 sectio J 2017 – S. 11–18.

[6] Дьюи Дж. Демократия и образование / пер. с англ. Ю.И.Турчаниновой, Э.Н.Гусинского, Н.Н.Михайлова. – М.: Педагогика-Пресс, 2000. – С.284-286.

[7]Dewey J. My Pedagogic CREED // Selected Educational writings white an introduction and commentary by G.W. Garforth; Lecturer in education university of hull. – Heiremenn, London, 1966. – Pp.44–59.

[8] Хуторской А.В. Школа Дж. Дьюи и дидактика прогрессивистов // Вестник Института образования человека. – 2015. – №2. - http://eidosinstitute.ru/journal/2015/200/

[9] Imperativ (lot. imperativus) – talab, qonun, buyruq. // https://ru.wikipedia.org/wiki

[10] Грибанова В.А. Формирование гражданской активности студенческой молодежи в воспитательной работе ВУЗа // Автореф…дис… к... пед…наук. – Волгоград, 2016. – С.26.

[11] Балл Г.А. Психологическое содержание личностной свободы: сущность и составляющие // Психол. журн. 1997. – Т. 18. № 5. – С.7-19., Басюк С.В. Формировани гражданина: опыт социокультурной трансформации. – Уфа: БИСТ (филиала) ОУП ВПО “АТиСО”, 2014. – С.176, Дьюи Дж. Демократия и образование / пер. с англ. Ю.И. Турчаниновой, Э.Н. Гусинского, Н.Н. Михайлова. – М.: Педагогика-Пресс, 2000. – С.384., *Кочетова Ю.А., Емельянова Е.А.* Психологические характеристики проявления гражданской позиции в ранней и поздней юности // Психолого-педагогические исследования. 2019. Том 11. –№4. – С.147–156, Carr W., Hartnett A. Education and Straggle for Democracy. – Open University Press, 1996. – P. 54.

hisoblangan ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlarni qondirishga yo’naltirilgan. Bunda, O’zbekistonning siyosiy tizimi haqida tasavvurlarni shakllantirib, mamlakat aholisini ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va siyosiy hayotga ishtirokini mental jihatlari o’z ifodasini topadi;

Faol fuqarolikning ruhiy jihati, inson, jamiyat manfaatlariga zid bo’lgan, qadriyatlar tizimini izdan chiqaradigan har qanday harakatlarga qarshi munosabat bildirish ko’nikmasini shakllantirish bilan, ijobiy jarayonlarga adekvat baho berishni o’rgatish;

Faol fuqarolikning ijtimoiy jihati, ko’pmillatli mamlakatimizda barcha millat vakillari bilan tinch-totuv yashash hayot tarzini saqlash uchun axloqiy, ma’naviy, madaniy, fuqaroli qadriyatlarni o’rgatish;

Faol fuqarolikning umuminsoniy jihati, dunyoning yaxlitligi, tinchlik, totuvlik, barqarorlik har bir xalq uchun bir xil qadriyat sanalishini, uni ta’minlash madaniy hamkorlik kerakligini o’rgatishda ifodalanadi.

TADQIQOTLAR METODOLOGIYASI. Insonni o’ziga, tabiatga, atrofdagilarga oid me’yorlar haqidagi bilimlar majmuasi sifatida gumanitar bilimlar fuqarolikni (shu jumladan faol fuqarolikni) shakllantirishni muhim manbasi hisoblanib, qarashlar, e’tiqodlar va ideallarning me’yoriy darajasini belgilab beradi[12]. Bas shunday ekan, faol fuqarolikni ta’limiy, ruhiy, ijtimoiy va umuminsoniy kabi pedagogik imperiativlari, empirik o’rganish metodikalarida o’z aksini topishi lozim. Mazkur pedagogik mavzuni xorij va mamlakatimizda B.Ruszard, R.Krachneskiy, S.A.Raschetina, O.M. Zaychenko, Ye.N.Seliverstova, L.K.Fortova, Ye.A.Bazaley, L.M.Semenyuk, A.Z.Ismailov, A.N.Maxmudova, F.Nabiyev, O.Otamirzayev, G’.N.Pirnazarov, B.Xo’jayev kabi tadqiqotchilar o’rgangan bo’lsalar-da, empirik tadqiqot o’tkazish uchun metodikalarni (test, so’rovnoma, anketa) tayyorlashni ko’rsatib o’tmaganlar[13]. Pedagogik tadqiqotlar doirasida faol fuqarolik fenomenining turli jihatlarini o’rganishga mo’ljallangan metodikalarni hozirga qadar yaratilmaganligi, nazariy-metodologik asosni takomillashtirishni taqozo etadi. Tadqiqotimizning doirasida “Faol fuqarolikni ifodalashni o’rganish” so’rovnomasi va “Faol fuqarolik sifatlarini egallash motivatsiyasini o’rganish” metodikasini ishlab chiqishni belgilab oldik. Chunki, pedagogik tadqiqotlarda o’lchov birligiga ega bo’lgan tadqiqiy metodikalardan foydalanish, o’rganilayotgan obyektning pedagogik diagnostikasi va progonozini amalga oshirish uchun

[12] Басюк С.В. Формировани гражданина: опыт социокультурной трансформации. – Уфа: БИСТ (филиала) ОУП ВПО “АТиСО”, 2014. – С.150.

[13] *Расчетина С.А., Зайченко О.М. Социодидактика: История и теория соц. Педагогики / монография. - Великий Новгород, 2003.* –С.*343.,* Селиверстова Е.Н. Развивающая функция обучения: опыт дидактической концептуализации. – Владимир, 2006. – С.261.,Фортова Л.К., Базалей Е.А. Формирование гражданской позиции современной учащейся молодежи как актуальная педагогическая проблема // Казанский педагогический журнал. 2015. – №4. –С.10-15.,Семенюк Л.М. Психология гражданской активности: особенности, условия развития: особенности, условия развития // Дис.. д-ра психологических наук. – М., 2007. – С.293., Ismailov A.Z. Demokratik fuqarolik jamiyati va unda huquqiy ongni bilishning ijtimoiy-falsafiy dialektik asoslari. Academic Research in Educational Sciences, 2020. 1(1). – P.202-210., Karimov E.E O‘zbekiston yoshlarining dunyoqarashini uyg‘ush shakllantirish muammolari. – T.: Islom universiteti nashriyoti, 2004. – B.62., Maxmudova A.N. Shaxs xuquqiy ijtimoiylashuvida ijtimoiy nazorat tushunchasi va tizimi // mejdunarodniy jurnal Konsensus. – 2020. – T. 1. –№. 1., Nabiyev F. Fuqarolik jamiyati sharoitida mafkuraviy immunitetni kuchaytirishda ma’naviyatning o‘rni. Globallashuv. Ommaviy madaniyat milliy g‘oya // Ilmiy-amaliy maqolalar to‘plami. –T.: “Ma’naviyat”, 2009., Отамирзаев О. Социальная активность молодежи независимого Узбекистана. –Т., 2002. –С.41., Pirnazarov G‘.N. Faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lgan yosh avlodni tarbiyalashda huquqiy tarbiyaning o‘rni va roli // Zamonaviy ta’lim / Современное образование 2016, 3. –B.3-7., Xo‘jayev B. Jamiyatni demokratiyalashtirish sharoitida o‘quvchi-yoshlarda fuqarolik madaniyatini rivojlantirish // Pedagogik mahorat. – Buxoro, 2017, –№3. –B.7-13.

ham kerakdir[14]. Bunda, tadqiqot mantig’ini belgilab, kerakli sifat (bilim, ko’nikma va malaka)larni shakllantirish yoki pedagogik korreksiyasini ta’minlash tadqiqotchining diqqat markazida turadi. Bizning misolimizda, OTM muhiti “mikro jamiyat” sanalib, jamiyatning boshqa institutlari bilan fuqarolik faolligi bo’yicha integratsiyalashib borishi natijasi qamrovi kengayib, sotsiodidaktik mazmun kasb etadi va bu jarayonda empirik o’rganish metodikalarini yaratish metodologik nuqtai nazari asosida ham dolzarblashtiradi.

“Faol fuqarolikni ifodalashni o’rganish” so’rovnomasi

So’rovnomadagi savollarni diqqat bilan o’qib, keltirilgan tasdiqlar Sizni qoniqtirsa unda birini tanlang! Sizni qoniqtiradigan javob bo’lmasa, unda o’zingizni javob variantingizni keltiring.

So’rovnomaning maqsadi: - yoshlarning jamiyat hayotida kechayotgan jarayonlarga munosabatini, daxldorligini aniqlashdan iborat.

So’rovnomaning ilmiy-nazariy asosi: ijtimoiylashuvning adaptiv konsepsiyasi (Dj. Dyui), ijtimoiylashuvning rolli konsepsiyasi (R. Darendorf, K.Leng-ton, F.Tenbruk), ijtimoiylashuvning tanqidiy konsepsiyasi (K.Rodjers, V.Xayns, A.Maslou) va ijtimoiy o’rganish konsepsiyasi (A. Bandura, Dj. Mak-kobi, L.Martin).

So’rovnoma matni:

1. Siz, faol fuqarolik deganda nimani tushunasiz?

a) jamoat ishlariga qatnashishni;

b) ehtiyojmandlarga yordam ko’rsatishni;

v) har xil tadbirlar tashkil etishni;

g) Sizning javob variantingiz _____

2. Faol fuqarolik qanday ifodalanadi?

a) o’z haq-huquqlarimni himoya qilishda;

b) jamiyatning ijtimoiy va siyosiy hayotidga ishtirok etishda;

v) o’zi va atrofdagilar uchun javobgarlikda;

g) Sizning javob variantingiz _____

3. Faol fuqarolik Sizda mujassamlashgan bo’lsa, u qanday ko’rinadi?

a) saylov va namoyishlarga qatnashaman;

b) mamlakatning siyosiy va iqtisodiy hayotini jamoalarda muhokama qilaman;

v) konstitutsiya va qonunlarni hurmat qilaman, qolganlarni ham rioya etishga chorlayman;

g) Sizning javob variantingiz _____

4. Faol fuqarolikni namoyon etishga Sizga nima turtki bo’ladi?

a) majburiyatim, g’ururim;

b) hamdarlik va qismatdoshlik;

v) jamiyat hayotini ijobiy tomonga o’zgartirish;

g) Sizning javob variantingiz _____

[14] Полонский В. М. Оценка качества научно-педагогических исследований. – М., 1987. – С.144., Просветова Т.С. Методология и методы научно-педагогических исследований. – Воронеж: Издательско-полиграфический центр «Научная книга», 2018. – С.280.

5. Faol fuqarolik sifatlarini namoyon etishga nima ta’sir o’tkazdi?

a) yangi tanishuvlar;

b) dunyoqarashimni o’zgarishi;

v) siyosiy va huquqiy savodxonligimni oshishi;

g) Sizning javob variantingiz _____

6. Fuqarolik faolligingiz Sizga nima beradi?

a) atrofdagilarni hurmatiga sazovor bo’lishni;

b) odamlarning muammosini hal qilishda yonma yon turishni;

v) o’zimni boshqalar bilan teng ko’rishimni;

g) Sizning javob variantingiz _____

7. Sizni faol fuqarolik sifatlaringizni ko’rsatishga nima xalaqit beradi?

a) odamlarni qo’lini bigiz qilib ko’rsatishi;

b) jamiyatning ijtimoiy va siyosiy hayotiga ishtirok etishda davlat idoralari xodimlarining to’siq bo’lishlari;

v) bilim va tajribamning yetishmasligi;

g) Sizning javob variantingiz _____

8. O’zingizni faollashtirish uchun nima qilasiz?

a) xorijiy davlatlarning siyosiy hayotini kuzataman;

b) hokimiyat va hukumat ishlarini tahlil qilaman;

v) o’zim va yaqinlarimning ertangi farovon hayotini o’ylayman;

g) Sizning javob variantingiz _____

9. Faol fuqarolikni namoyon etish uchun nima qilish darkor?

a) xalqning muammosini yaqindan bilish;

b) davlat idoralarini o’z vazifasini bajara olmasligini bilish;

v) atrofingda Seni qo’llab-quvvatlovchilarning borligi;

g) Sizning javob variantingiz _____

10. Siz uchun faol fuqarolik faoliyati bilan shug’ullanishga nima yetishmaydi?

a) harakat dasturimning yo’qligi;

b) maqsadni aniq emasligi;

v) qaysi ishlarni qanday tartibda bajarishni bilmasligim;

g) Sizning javob variantingiz _____

Har bir savol raqamli ko’rsatkich – javobga ega bo’lib, bunda sinaluvchi (respondent) o’ziga ma’qul bo’lgan javob variantini 0, 1, 2 va 3 ball bilan baholaydi.

1 ball – qo’shilmayman;

2 ball – qisman qo’shilaman;

3 ball – to’liq qo’shilaman.

Javoblar izohi:

30 – faol fuqarolik komponentlarining barcha jihatlari shakllangan;

20 – faol fuqarolik komponentlarini kognitiv va affektiv jihatlari shakllangan;

10 – faol fuqarolik komponentlari shakllanmagan.


TAHLIL NATIJALARI. Joriy pedagogik holatni aniqlash uchun tadqiqotda qatnashganlarning (2.3.1-diagramma. Qarshi davlat universitetining 3 bosqich talabalari 146 nafar (qizlar 123 nafar, o’g’il bolalar 19 nafar); O’zbekiston Milliy universitetining 3 bosqich talabalari 130 nafar (qizlar 102 nafar, o’g’il bolalar 28 nafar); Navoiy davlat pedagogika institutining 3 bosqich talabalari 144 nafar (qizlar 113 nafar, o’g’il bolalar 31 nafar)) 35,0% faol fuqarolik komponentlari shakllanmagan. 45,5% faol fuqarolik komponentlarini kognitiv va affektiv (2.1-jadval) jihatlari shakllangan va 19,5% faol fuqarolik komponentlarining barcha jihatlari shakllanganligi aniqlandi.

T/r	OTM lardagi qatnashgan kurslar	Qatnashganlar			Natijalar (kurslar bo’yicha jami qatnashganlarga nisbatan-nafar)		
		O’g’illar	Qizlar	Jami	Faol fuqarolik komponentlari shakllanmagan	Faol fuqarolik komponentlarini kognitiv va affektiv jihatlari shakllangan	Faol fuqarolik komponentlarining barcha komponentlari shakllanganligi
1	QDU 3-kurs	23	123	146	26	62	58
2	O’z.MU 3-kurs	28	102	130	23	64	43
3	NDPI 3-kurs	31	113	144	28	62	54
Jami		82	338	420	77	188	155

2.1-jadval. OTMlar kesimida talabalarda faol fuqarolikning ifodalanishi

Tadqiqotning obyektini oliy ta’lim tizimida talabalar fuqarolik faolligini shakllantirish jarayoni tashkil etib, tajriba-sinov obyekti sifatida Qarshi davlat universitetining 5111400-Xorijiy til va adabiyoti yo’nalishi 3-kurs (146 Nafar), Mirzo Ulug`bek nomidagi *O`zbekiston Milliy universiteti*ning Xorijiy til va adabiyoti yo’nalishi 3-kurs (130 Nafar), Navoiy davlat pedagogika institutining Ingliz tili va adabiyoti yo’nalishi 3-kurs (144 nafar) tanlab olindi.

OTMlar kesimida faol fuqarolikni ifodalanishi, uchta indikator asosida qiyoslanganda, respondentlarning pedagogik diagnostikasi natijasi tashkiliy-pedagogik vazifalarni belgilash imkonini beradi.



2.3-rasm. OTMlar kesimida talabalarda faol fuqarolikning ifodalanishining diagramma ko‘rinishi.

Bu empirik ko’rsatkich pedagogik korreksiya o’tkazish yoki shakllantiruvchi tajribalarni olib borishni talab etadiki, tadqiqotimiz uchun ikkinchisi muhim sanalib, tajriba-sinov bosqichlari va vazifalarini belgilash uchun asos sanaladi.

Pedagogik faoliyat davomida “fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish jarayonini talaba shaxsining individual-psixologik xususiyatlari va yo‘nalgan qiziqishlari bilan uyg‘unlashtirish[15]” lozim. Bu ikkita tarkib, faol fuqarolikni shakllantirishni didaktik ta’minotini alohida qismi sanaladi.

XULOSA. Ta’lim muhitida faol fuqarolikni shakllantirish modelini tayyorlashning pedagogik imperiativlari ta’limiy jihat, ruhiy jihat, ijtimoiy jihat, umuminsoniy jihat kabilarni ifoda etib:

Birinchidan, empirik metodikalarni tayyorlashning nazariy-metodologik asosini belgilashni talab etadi. Bunda, ijtimoiylashuvning adaptiv, tanqidiy va ijtimoiy o’rganish konsepsiyalari tanlanishi maqsadga muvofiq;

Ikkinchidan, faol fuqarolik kompetensiyasi kognitiv (o’zlashtirilgan bilim va tushunchalar), motivatsiyaviy-qadriyatli (anglangan motivlar, maqsad, qadriyatli o’rnatilgan tizimlar), xulq-atvorli (real xulqni namoyon yetish ko’nikmasi) va refleksiv (adekvat tarzda baho berish) kabilardan tarkib topgan bo’lib, empirik o’rganish metodikalari ularning tarkibiy qismlarni shakllanish mexanizmini belgilashga qaratilgan bo’lishi lozim;

Uchinchidan, talaba-yoshlarni faol fuqaroligining shakllanishi, OTMlarda bazaviy sanalgan o’quv predmetlarida fuqarolik va faol fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan axborot va bilimga, ta’lim amaliyotida an’anaviylik va zamonaviylikni uyg’unligini ta’minlanganligi, talabalarni mustaqil tayyorgarligini erkin tarzda tashkil etilganligi hamda tizimda subyekt-subyekt munosabatlari asosida ta’lim jarayonini boshqarilishi kabi pedagogik shart-sharoitlarga bog’liq.

[15] Akramov A.A. Bo‘lajak o‘qituvchilar fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalarning o‘rni // Ta’lim texnologiyalari / Педагогические технологии. – 2017, №4. – B.59.

Talaba-yoshlarimizda faol fuqarolikni shakllantirish uchun barcha oliy ta’lim muassasalari uchun ijtimoiy-gumanitar fanlar bloki doirasida yagona namunaviy o’quv dastur tayyorlash, ta’limiy manbalarni milliy manfaatlarni himoyasini ta’minlash nuqtai nazari asosida ishlab chiqish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Karimov E.E O’zbekiston yoshlarining dunyoqarashini uyg’ush shakllantirish muammolari. – T.: Islom universiteti nashriyoti, 2004. - 62 b.

2. Осмоловская И.М. И.Я. Лернер о процессе обучения: современное прочтение // Отечественная и зарубежная педагогика. 2017. –Т.1, №3 (39). - 31-41 с.

3. Muratov X.A. Oliy ta'lim muassasasi tizimida talabalarning fuqarolik faolligini shakllantirishda motivatsiya turlarining ahamiyati. International scientific journal “Interpretation and researches” Volume 1 issue 8 | ISSN: 2181-4163 | UIF-2023: 8.2// – B.197-198.

4. Лернер И.Я. Дидактические основы методов обучения. – М.: Педагогика, 1981. - 186 с.

5. Xamrayeva M. M.,Avezov O.R. O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. –Farg’ona, 2024. Vol. 3 –No. 28. – B.18.

6. Васильева Ю.А., Леонтьев Д.А. Этогенический подход к изучению социальных отклонений // Иностранная психология. 1994. –Т.2. –№2(4). - 83-86 с.

7. Sadriddinov S.R., Sadriddinov S.R. Psixologik xususiyatlarni amaliy o‘rganish: yonashuvlar takomillashuvi // Open Herald: Periodical of Methodical Research Volume 1, Issue-8, December, 2023 ISSN (E): 2810-6385 Website: https://academiaone.org/index.php/6-B.7-13.

8. Akramov A. A. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishning tashkiliy-metodik asoslarini takomillashtirish // Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. - Toshkent, 2016. - 78 b.

9. Ziyayev A., Maqsudov U. O‘quvchilarda fuqarolik tuyg‘usini milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashning pedagogik jihatlari // Pedagogik mahorat 3-son 2020 yil.pdf. -Б.87-89.

10. Muratov X. A. Oliy ta’lim tizimida fuqarolik va faol fuqarolik tushunchalarining mazmun-mohiyati. Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar -Buxoro, 2023. – № 12 dekabr. -121 b.

11. Muratov X.A. Spiritual and ethical aspects of social networks in the formation of civil activity in youth.// Current Research Journal Of Pedagogics 2(5): – P. 67-71, May 2021 DOI: – https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-02-05-13 ISSN 2767-3278